

AGROBIZNES, FAN VA TEKNOLOGIYALAR

АГРОБИЗНЕС, НАУКА
И ТЕХНОЛОГИИ

AGRIBUSINESS,
SCIENCE AND
TECHNOLOGY

ILMIY - AMALIY
ELEKTRON JURNAL

№ 083688



ISSN: 3060-5245

TOSHKENT - 2025



BOSH MUHARRIR

Oblomuradov Narzullo Naimovich – iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), prof.

Bosh muharrir o'rinbosarlari:

Islamov Soxib Yaxshibekovich – qishloq xo'jaligi fanlari doktori (DSc), prof.

Sultonov Kamoliddin Sadriddinovich – qishloq xo'jaligi fanlari doktori (DSc), prof.

Farmonov To'liqin Xayitmurodovich – iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), prof.

Muharrir:

Beglayev Uchqun Xurramovich – iqtisodiyot fanlari falsafa doktori, dotsent

Tahrir hay'atining xalqaro a'zolari:

Kusainov Xalet Xaymullayevich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)

Vilija Aleknevičienė – iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Universitet Vitovta Velikogo)

Gilbert Ludwig – professor, (Jamk University of Applied Sciences)

Bobojonov Ixtiyor Baxtiyorovich – iqtisodiyot fanlari doktori, (Germaniyaning

Leybnits nomidagi Markaziy Osiyoda qishloq xo'jaligini rivojlantirish instituti (IAMO))

Daiva Makutenė – professor, (Vitautas Magnus universiteti, Litva)

Xaitboeva Nargiza Alikulovna – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent (Tojikiston davlat huquq, biznes va siyosat universiteti)

Tahrir hay'ati:

08.00.00-Iqtisodiyot fanlari:

Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich – i.f.d. (DSc), prof.

Saidov Muxammad-Ali Xakimovich – i.f.d. (DSc), prof.

Rustamova Iroda Baxramjanovna – i.f.d. (DSc), prof.

Ochilov Ilhom Sayitqulovich – i.f.d. (DSc), prof.

Askarov Nazimjon Niyozovich – i.f.d. (DSc), prof.

Abduvasikov Abduaziz Abdulazizovich – i.f.n, prof.

Mamadiyarov Dilshad Uralovich – i.f.n, dots.

Achilov Mashrab Ulug'bekovich – i.f.f.d. (PhD), dots.

Gallimova Feryuza Rafikovna – i.f.n, dots.

Odilova Dilnozaxon Barnayevna – i.f.f.d. (PhD), dots.

Yangiboyev Dilshod G'ulomovich – i.f.f.d. (PhD).

Tojiboyeva Nafisa Raxmiddin qizi – i.f.f.d. (PhD).

Mardiyyev Nurali – i.f.n, dots.

Kuvnakov Xaydar Kasimovich – i.f.n, dots.

Siddikov Zaxid Tulkunovich – i.f.n, v.b.prof.

Saidova Dildora Nurmatovna – i.f.n, dots.

Roziqov Jahongir Mustaqim o'g'li – i.f.f.d. (PhD), dots.

Boltayev Nurali Shiramatovich – i.f.f.d. (PhD), dots.

Dexkanova Nilufar Sagdullayevna – i.f.f.d. (PhD), dots.

06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari:

Shokirov Alisher Djuraboyevich – q.x.f.d. (DSc), prof.

Mardanov Husniddin Xolbozorovich – q.x.f.d. (DSc).

Abdiyev Fozil Rashidovich – q.x.f.d. (DSc).

Sattorov Maqsud Axtamovich – q.x.f.d. (DSc).

Yuldashov Nurbek Ergashovich – v.f.d. (DSc).

Xalilov Ilhom Mamatkulovich – b.f.d. (DSc), k.i.x.

Xalmirzayev Dilmurad Kamilovich – q.x.f.d. (DSc), dots.

Namazov Ixtiyor Choriyevich – q.x.f.d. (DSc), prof.

Eshonqulov Jamoliddin Saporboy o'g'li – q.x.f.d. (DSc), dots.

Abdullayev Anvar Kodirullayevich – b.f.n., k.i.x.

Atabayev Ma'ruf Maxmudovich – q.x.f.n., prof.

Muxammadov Yo'ldoshbek Akmal o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD).

Safarov Asqar Asadullayevich – q.x.f.f.d. (PhD), dots.

Mustafakulov Davron Mamatqulovich – q.x.f.f.d. (PhD), dots.

Kasimov Botir Sadriddinovich – q.x.f.f.d. (PhD).

Maxmudova Shaxnoza Abdufattaxovna – q.x.f.f.d. (PhD), dots.

Elboboyev Abduq'ani Shuxrat o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD).

Akramov Umidilla Ikramdjanovich – q.x.f.n., dots.

MUASSIS

Toshkent davlat agrar universiteti

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

Manzil: Toshkent viloyati, Qibray

tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.

Jurnalning telegram manzili:

t.me/agrobiznes_elektronjurnal

E-mail: licht-1989@mail.ru

Jurnalning rasmiy sayti:

<https://www.agrobiznesjournal.uz>

Tel: +(998) 93 439 30 00

Jurnalning ilmiyligi:

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 30.11.2024-yildagi

№364/5-sonli qarori bilan

08.00.00-Iqtisodiyot fanlari

bo'yicha, 08.05.2025-yildagi

№370/5-sonli qarori bilan

06.00.00-Qishloq xo'jaligi

fanlari bo'yicha "Dissertatsiyalar

asosiy ilmiy natijalarini chop

etish tavsiya etilgan milliy ilmiy

nashrlar ro'yxati" ga kiritilgan.

Elektron nashr, 853 sahifa.
E'lon qilishga 2025-yil
30-dekabrda ruxsat etildi.



“AGROBIZNES, FAN VA TEKNOLOGIYALAR” ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNALI

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 – Makroiqtisodiyot
08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 – Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 – Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 – Ekonometrika va statistika
08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 – Marketing
08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 – Menegment
08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati.

06.00.00 – QISHLOQ XO‘JALIGI FANLARI

06.01.01 – Umumiy dehqonchilik. Paxtachilik
06.01.02 – Melioratsiya va sug‘orma dehqonchilik
06.01.03 – Agrotuproqshunoslik va agrofizika
06.01.05 – Seleksiya va urug‘chilik
06.01.06 – Sabzavotchilik
06.01.07 – Mevachilik va uzumchilik
06.01.08 – O‘simlikshunoslik
06.01.09 – O‘simliklarni himoya qilish
06.01.11 – Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini saqlash va qayta ishlash
06.02.02 – Qishloq xo‘jaligi hayvonlarini oziqlantirish va ozuqa tayyorlash texnologiyasi
06.02.03 – Xususiy zootexniya. Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish texnologiyasi
06.03.01 – O‘rmon ekinlari. Seleksiya, urug‘chilik va shaharlarni ko‘kalamzorlashtirish. O‘rmonlar agromelioratsiyasi va himoya o‘rmonlarini barpo etish, Dorivor o‘simliklar introduksiyasi, yetishtirish texnologiyasi va agrofarmekologiyasi.



M U N D A R I J A

IQTISODIYOT FANLARI

SHERIPBAYEVA UMIDA ATABAYEVNA

Global iqlim o'zgarishi sharoitida qishloq xo'jaligini rivojlantirish va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash yo'nalishlari.....14

TURDIQULOVA GULMIRA OBIDQUL QIZI

Foyda solig'ining iqtisodiy kategoriya sifatida o'rni va ahamiyati.....20

BERDIYOROV TEMUR AZAMATOVICH

Jamoat transporti faoliyatida marketing faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish.....26

BABAYEVA LOLA IBRAGIMOVNA

Xizmat ko'rsatish sohasida raqamli transformatsiya jarayonlari va ularning iqtisodiy samaradorlikka ta'siri.....33

RAXIMOV MANSUR MAQSUDBEKOVICH, MIRZAMURODOV HOJIAKBAR ABDURAXMON O'G'LI

Milliy iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari.....43

OTAVULLAEV SUKHROB SA'DULLO O'G'LI

Issiqxonalar samaradorligini baholash metodikasini tanlash va ishlab chiqish.....49

XUDAYNAZAROVA DILNOZA GAFUROVNA

Farmasevtika korxonalarida ta'minot jarayonlari buxgalteriya hisobini takomillashtirish.....54

OTAVULLAEV SUKHROB SA'DULLO O'G'LI

Issiqxona xo'jaligining tashkiliy-iqtisodiy modelini o'rganishga oid nazariy va metodologik yondashuvlarni tahlil qilish.....61

УРМАНОВА УМИДА ХАКИМДЖАНОВНА

Бюджетирование и его влияние на эффективность управления фермерскими хозяйствами.....66

XAYDAROV SARDOR KOMIL O'G'LI

Qishloq xo'jaligida bioiqtisodiyotni qo'llash va ekologik innovatsiyalar orqali agroklasterlarni rivojlantirish istiqbollari.....73

KARIMOV ANVARJON

Agrosanoat klasterlarida suv resurslaridan samarali foydalanishni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish.....79

ДЕХКАНОВА ШАХЛОХОН САГДИЕВНА

Роль цифровизации в социально-экономическом развитии государства.....87





SAFAROV ASQARBEK ASADULLAYEVICH, KASIMOV BOTIR SADRIDDINOVICH, NORMURODOV SARVAR NORBOY O‘G‘LI	
Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlashda innovatsion yondashuvlar.....	93
BURIYEV SHERZOD AXADOVICH	
Hududlar iqtisodiyotida xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari.....	101
SAYITQULOV JAHONGIR ILHOMOVICH	
Raqamli bank xizmatlari va ularni transformatsiyalash tahlili.....	106
MIRZAYEV MUSURMON UMIDULLAYEVICH	
Kichik sanoat zonalarini rivojlantirish asosida aholi farovonligini oshirish imkoniyatlari.....	112
MADRAXIMOV QAHRAMON EGAMBERGANOVICH	
O‘zbekiston hududlari iqtisodiy rivojlanishidagi nomutanosibliklarni baholash va ularni kamaytirishning zamonaviy mexanizmlari.....	117
FAYZIYEVA DILSUZ BAHODIROVNA	
O‘zbekistonda iqtisodiy o‘rish omillari va ularning ijtimoiy tengsizlikka ta’siri.....	130
RAXIMOVA SHAXNOZA XAMZAYEVNA	
Yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda menejment tizimini transformatsiya qilish va jamoatchilik bilan hamkorlikning strategik mexanizmlari.....	139
RASULOV NURIDDIN ABDULLAYEVICH	
Islomiy moliya tamoyillari asosida innovatsiyalarni moliyalashtirish.....	146
FAYZIYEVA DILSUZ BAHODIROVNA	
Innovatsiyalarning iqtisodiy o‘rsh va tengsizlikka ta’siri.....	159
DJURAYEV OLIMJON NARKULOVICH, SHODIYEV JAHONGIR OBIDJON O‘G‘LI	
Raqamli texnologiyalar sharoitida ta’lim tizimida inson resurslarini boshqarishda HR-analitika va sun’iy intellektni qo‘llash tendensiyalari.....	168
MATRIZAYEV SARVARBEK ANVAR O‘G‘LI, ABDURAXMONOV JAVLONBEK RAVSHAN O‘G‘LI, MALIKOV NU‘MONJON KAMALOVICH	
AQSH va Xitoy o‘rtasidagi savdo siyosatining tahlili.....	176
RASHIDOV JAMSHID XAMIDOVICH	
To‘qimachilik korxonalarida innovatsion faoliyat xatarlarini vujudga kelishining o‘ziga xos xususiyatlari.....	189
ЭЛЬБАЕВА МУКАДДАС РАШИДОВНА	
Отношения между налоговыми органами и налогоплательщиками: правовая природа, структура и тенденции развития.....	197
TURAYEVA GULIZAHRO	
Qishloq xo‘jaligini texnik modernizatsiyalashda xorijiy tajribalar.....	205



INNOVATSIYALARNING IQTISODIY O‘SISH
VA TENGSIZLIKKA TA’SIRI

FAYZIYEVA DILSUZ BAHODIROVNA

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Iqtisodiyot nazariyasi kafedrası assistentiE-mail: d.fayzieva@tsue.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada innovatsiyalarning zamonaviy iqtisodiyotda tutgan o‘rni, ularning iqtisodiy o‘sish jarayonlariga ta’siri hamda natijaviy ravishda yuzaga keladigan ijtimoiy tengsizlik shakllari kompleks yondashuv asosida tahlil qilingan. Innovatsion texnologiyalar iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, ishlab chiqarish samaradorligini ko‘paytirish va yalpi ichki mahsulotning barqaror o‘sishini ta’minlashda muhim omil sifatida qaraladi. Biroq maqolada ta’kidlanishicha, innovatsiyalar mehnat bozorida malaka darajasi bo‘yicha tafovutlarni kuchaytirib, yuqori malakali va past malakali ishchi kuchi o‘rtasidagi daromadlar nomutanosibligini kengaytirishi mumkin. Shuningdek, innovatsion iqtisodiyot hududlararo rivojlanish sur’atlarida ham sezilarli tafovutlar keltirib chiqarib, “raqamli tafovut” orqali ijtimoiy-iqtisodiy tengsizlikning yangi ko‘rinishlarini yuzaga keltiradi.

Kalit so‘zlar: innovatsiya, iqtisodiy o‘sish, ijtimoiy tengsizlik, texnologik rivojlanish, raqamli tafovut, mehnat bozori, malaka tafovuti, inkluziv iqtisodiyot.

Аннотация. В данной статье представлен расширенный научный анализ влияния инноваций на современные модели экономического роста и формирование социально-экономического неравенства. Инновации, особенно цифровые и высокотехнологичные решения, выступают ключевым фактором повышения производительности, укрепления конкурентоспособности и обеспечения долгосрочного экономического развития. Вместе с тем исследование подчёркивает, что инновационный рост может сопровождаться усилением неравенства на рынке труда, увеличением разрыва в доходах между высококвалифицированными и низкоквалифицированными работниками, а также появлением новых форм социального расслоения, обусловленных неравным доступом к технологиям.

Ключевые слова: инновации, экономический рост, социально-экономическое неравенство, технологическое развитие, цифровой разрыв, поляризация рынка труда, разрыв в квалификации, инклюзивная экономика.

Abstract. This article presents a comprehensive academic analysis of how innovations shape modern economic growth patterns and influence the dynamics of socio-economic inequality. Innovations, particularly digital and high-tech advancements, serve as a catalyst for increasing productivity, enhancing competitiveness, and ensuring long-term economic expansion. However, the study emphasizes that innovation-driven growth can also exacerbate disparities in the labor market by



increasing the wage gap between highly skilled and low-skilled workers, altering employment structures, and creating new forms of inequality linked to access to technology.

Keywords: innovation, economic growth, socio-economic inequality, technological development, digital divide, labor market polarization, skills gap, inclusive economy.

KIRISH

Globallashuv jarayonining tezlashuvi, raqamli texnologiyalarning keng miqyosda joriy etilishi va iqtisodiyotning innovatsion xarakter kasb etishi natijasida mamlakatlar iqtisodiy rivojlanishida sifat jihatidan yangi bosqich shakllanmoqda. Innovatsiyalar nafaqat iqtisodiy oʻsishning asosiy drayveri, balki raqobatbardoshlik, resurslardan samarali foydalanish, ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish va iqtisodiy tizimlarning barqarorligini taʼminlashning muhim omili sifatida qaralmoqda. Shu nuqtayi nazardan, innovatsion rivojlanishning real sektor, xizmatlar sohasi, mehnat bozori va ijtimoiy infratuzilma kabi yoʻnalishlarda chuqur integratsiyalashuvi iqtisodiy oʻsishning yangi sifat koʻrsatkichlarini shakllantirishi tabiiy.

Biroq innovatsion taraqqiyotning ijobiy imkoniyatlari bilan bir qatorda, u iqtisodiy tizimda muayyan disbalanslarni vujudga keltirish ehtimolini ham oshiradi. Xususan, texnologik transformatsiya jarayoni mehnat bozorida yuqori malakali mutaxassislarga boʻlgan talabni keskin oshirib, past malakali ishchi kuchining iqtisodiy faoliyatdan chetlashishiga sabab boʻlmoqda. Natijada, daromadlar tafovuti, malaka boʻyicha nomutanosiblik, hududlar oʻrtasidagi raqamli infratuzilma darajasidagi farqlar va texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlaridagi tengsizlik kuchayishi mumkin. Shu bilan birga, innovatsiyalar natijasida yuzaga keladigan “raqamli tafovut” rivojlanayotgan davlatlarda iqtisodiy oʻsishning sifatiga bevosita taʼsir koʻrsatib, ijtimoiy qatlamlar oʻrtasida farqlarni yanada chuqurlashtirishi ehtimoli mavjud.

Dunyo tajribasi shuni koʻrsatadiki, innovatsiyalar iqtisodiy oʻsishni tezlashtirishi bilan birga, agar tegishli siyosiy, institutsional va ijtimoiy mexanizmlar bilan qoʻllab-quvvatlanmasa, tengsizlik darajasining ortishiga ham olib keladi. Shu bois innovatsion rivojlanishning inkluzivlik darajasini oshirish, texnologik yutuqlar natijalaridan jamiyatning barcha qatlamlarining teng foydalanishini taʼminlash bugungi kun iqtisodiy siyosatining ustuvor masalalaridan biri hisoblanadi. Innovatsiyalarning iqtisodiy oʻsish va tengsizlikka qanday taʼsir koʻrsatishini chuqur oʻrganish esa iqtisodiyotning barqaror rivojlanish strategiyasini ishlab chiqishda nazariy asos va amaliy yoʻnalishlarni belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqot innovatsiyalar va ijtimoiy-iqtisodiy tengsizlik oʻrtasidagi oʻzaro bogʻliqlikni zamonaviy ilmiy yondashuvlar asosida tahlil qiladi hamda innovatsion iqtisodiyot sharoitida inkluziv iqtisodiy oʻsishni taʼminlashga qaratilgan mexanizmlar, muammolar va istiqbolli yoʻnalishlarni aniqlashni maqsad qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Innovatsiyalarning iqtisodiy oʻsish va tengsizlikka taʼsirini oʻrganish boʻyicha ilmiy adabiyotlarda turli yondashuvlar shakllangan boʻlib, olimlar ushbu jarayonning

ijobiy va salbiy oqibatlarini makro va mikro iqtisodiy darajada tahlil qilganlar. Klassik va zamonaviy rivojlanish nazariyalarida innovatsiyalar iqtisodiy dinamikaga asosiy ta'sir ko'rsatuvchi omil sifatida ko'riladi. Xususan, Y. Shumpeterning innovatsion rivojlanish modeli innovatsiyalarni iqtisodiy o'sishning "ichki drayveri" sifatida talqin etib, texnologik yangiliklar iqtisodiyotda yangi tarmoqlarni shakllantirishi hamda "yaratuvchi yemirilish" jarayoni orqali eski ishlab chiqarish tuzilmalarini almashtirishi mumkinligini ta'kidlaydi. Bu yondashuv innovatsiyalar iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishi bilan birga, mehnat bozorida yangi talablar shakllanishiga olib kelishi mumkinligini ko'rsatadi.

R. Solou tomonidan ishlab chiqilgan neoklassik o'sish modeli esa texnologik taraqqiyotni iqtisodiy o'sishning uzoq muddatli asosiy omili sifatida ko'rsatadi. Ushbu modelga ko'ra, kapital va mehnat resurslaridan samarali foydalanish texnologik rivojlanish bilan uyg'unlashganda iqtisodiy o'sish sur'atlari sezilarli ravishda ortadi. Biroq keyingi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, texnologik o'sishdan keladigan foydalar barcha ijtimoiy guruhlariga teng taqsimlanmaydi va tengsizlikning kuchayishiga sabab bo'lishi mumkin.

So'nggi yillarda innovatsion rivojlanishning ijtimoiy tengsizlikka ta'sirini empirik jihatdan o'rganigan ko'plab tadqiqotchilar (Brynjolfsson & McAfee, 2014; Autor, 2015; Acemoglu & Restrepo, 2018) mehnat bozori transformatsiyasini asosiy xavf omili sifatida qayd etadilar. Ularning fikriga ko'ra, avtomatlashtirish, robototexnika va sun'iy intellekt texnologiyalarining joriy etilishi yuqori malakali ishchilarga talabni oshirsa-da, past malakali kasblarning qisqarishiga olib keladi. Bu esa jamiyatda daromadlarning polarizatsiyasini kuchaytirib, tengsizlik darajasining o'sishiga olib keladi.

Boshqa bir ilmiy yo'nalish innovatsiyalar va hududlararo nomutanosibliklar o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganadi. Florida (2012) va Rodriguez-Pose (2018) kabi olimlar yuqori texnologiyalar rivojlangan hududlarda iqtisodiy o'sish yuqori bo'lishi, ammo texnologik resurslardan cheklangan hududlarda iqtisodiy sustkashlik va ijtimoiy tengsizlik kuchayishi mumkinligini ta'kidlaydilar. Bu jarayon "raqamli tafovut" tushunchasi orqali ifodalanib, internet infratuzilmasi, texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari va raqamli savodxonlik darajalaridagi farqlar bilan bog'liq.

Innovatsion rivojlanishning inklyuzivlik darajasini o'rganishda OECD, Jahon Banki, Xalqaro Valyuta Jamg'arnasi va BMTning ko'plab hisobotlari muhim manba hisoblanadi. Ushbu tashkilotlar innovatsiyalarni iqtisodiy o'sishning asosiy omili sifatida e'tirof etsalar-da, inklyuziv siyosatsiz innovatsion taraqqiyotning tengsizlikni kuchaytirishi muqarrarligini ta'kidlaydilar. Xususan, raqamli iqtisodiyotga o'tish sharoitida inson kapitaliga investitsiyalar, texnologiyalarga teng imkoniyat yaratish, ijtimoiy himoya tizimini modernizatsiya qilish kabi omillar tengsizlikni kamaytirishda muhim sanaladi.

Shuningdek, mahalliy olimlar A. Vahobov, B. Khodiev, X. Abdux'orov, U. Jo'raev va boshqalar innovatsion rivojlanishning iqtisodiyotning barqaror o'sishiga ta'siri, innovatsion muhitni shakllantirish, texnologik modernizatsiya jarayonlarining ijtimoiy oqibatlari haqida ilmiy tadqiqotlar olib borganlar. Ularning ishlari shuni



ko'rsatadiki, O'zbekistonda innovatsion siyosatni amalga oshirish jarayonida ijtimoiy tengsizlikni yumshatish uchun ta'lim, raqamli infratuzilma va ilmiy-tadqiqot faoliyatiga yo'naltirilgan investitsiyalarni kengaytirish muhim ahamiyatga ega.

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili innovatsiyalar iqtisodiy o'sishni tezlashtirishi bilan birga, agar inklyuziv va mazmunli siyosiy choralar bilan qo'llab-quvvatlanmasa, ijtimoiy-iqtisodiy tengsizlikni kuchaytirishi mumkinligini ko'rsatadi. Shuning uchun innovatsion rivojlanishning iqtisodiy va ijtimoiy oqibatlarini birgalikda tahlil qilish, muvozanatli siyosatni shakllantirish hamda innovatsiyalardan barcha ijtimoiy qatlamlar manfaatdor bo'lishini ta'minlash dolzarb masala bo'lib qolmoqda.

METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotda innovatsiyalarning iqtisodiy o'sish va ijtimoiy tengsizlikka ta'sirini kompleks baholash maqsadida zamonaviy iqtisodiy tahlil uslublari, empirik modellash, statistik qiyoslash hamda nazariy-normativ yondashuvlar uyg'unlashtirilgan. Metodologiya iqtisodiy jarayonlarning ko'p omilli, dinamik va struktura jihatidan murakkab xarakterini hisobga olgan holda shakllantirildi.

Tadqiqot Y. Shumpeterning innovatsion rivojlanish konsepsiyasi, R. Solou va P. Romerning endogen o'sish modellari, Brynjolfsson va McAfee tomonidan ilgari surilgan "raqamli tafovut" nazariyasi, Acemoglu va Restrepo tomonidan ishlab chiqilgan texnologik avtomatlashtirishning mehnat bozoriga ta'siri haqidagi yondashuvlarga asoslanadi. Ushbu nazariyalar innovatsiyalarning makroiqtisodiy o'sish sur'atlari, mehnat bozorida poliarizatsiya, daromadlar bo'linishi va ijtimoiy tengsizlik shakllanishiga ta'sirini chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Tadqiqotda innovatsion rivojlanish va tengsizlik o'rtasidagi bog'liqlikni empirik ravishda baholash maqsadida quyidagi usullar qo'llanildi.

Panel ma'lumotlar tahlili 2000–2024 yillar uchun turli davlatlar kesimida innovatsion ko'rsatkichlar R&D xarajatlari, patent faolligi, texnologik modernizatsiya indeksi va ijtimoiy tengsizlik indikatorlari Gini koeffitsienti, daromadlar taqsimoti, mehnat bozoridagi malaka tafovutlari) o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash. Ko'p omilli regressiya modellari innovatsiyalar iqtisodiy o'sish sur'atlariga qanday ta'sir ko'rsatishi va ushbu ta'sirning tengsizlik orqali modulyatsiya qilinishini baholash. Korrelyatsion tahlil innovatsion faoliyat va ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar o'rtasidagi statistik bog'liqlikni aniqlash.

Comparative cross-country analysis rivojlangan, rivojlanayotgan va raqamlashtirish darajasi o'rtacha bo'lgan davlatlar o'rtasida o'zgaruvchilar farqini aniqlash. Tadqiqotda innovatsiyalarning iqtisodiy o'sish va tengsizlikka ta'sirini baholash uchun quyidagi asosiy indikatorlar tanlandi. Innovatsiya ko'rsatkichlari: R&D xarajatlari, patentlar soni, texnologik tayyorgarlik indeksi, yuqori texnologiyali eksport ulushi, raqamli transformatsiya darajasi. Iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari YaIM o'sish sur'ati, mehnat unumdorligi, sanoat ishlab chiqarishi indeksi.

Tengsizlik ko'rsatkichlari Gini indeksi, daromadlarning yuqori va past kvintillari o'rtasidagi farq, mehnat bozoridagi malaka tafovutlari, "raqamli tafovut" ko'rsatkichlari. Innovatsion rivojlanishning ijtimoiy oqibatlarini har tomonlama





baholash maqsadida quyidagi sifat tahlil metodlari qoʻllanildi. Kontent tahlil Jahon banki, OECD, UNDP, IMF va mahalliy davlat organlarining statistik hisobotlari, strategik hujjatlari va innovatsion rivojlanishga oid nashrlar asosida yaratilgan. Ekspert bahosi iqtisodchi olimlar, innovatsion menejerlar va raqamli iqtisodiyot sohasi mutaxassislarining fikrlari tizimlashtirildi. Case-study yondashuvi – Janubiy Koreya, Singapur, AQSh, Xitoy, Yevropa Ittifoqi hamda Oʻzbekiston tajribasi asosida innovatsiya siyosati va uning tengsizlikka taʼsiri oʻrganildi[9]. Tadqiqot quyidagi chegaralarda olib borildi:

- makro darajada iqtisodiy oʻsish va milliy daromad taqsimotiga taʼsir,
- mezo darajada hududlararo raqamli va innovatsion tafovutlar,
- mikro darajada foyda taqsimoti, malaka talablari va bandlikning oʻzgarishi.

Bu chegaralanish innovatsiyalarning har bir darajadagi farqli taʼsir mexanizmlarini aniq aniqlash imkonini beradi.

Tahlilda foydalanilgan maʼlumotlar Jahon banki, OECD, ITU, UNDP, Statista, ILO, Oʻzbekiston Respublikasi Milliy statistika qoʻmitasi kabi xalqaro va milliy manbalardan olindi. Maʼlumotlar tozalandi, normal distribusiya va multikolinearlik tekshiruvlari amalga oshirildi, bu esa natijalarning ishonchligini oshirdi. Umuman, tadqiqot metodologiyasi innovatsiyalarning iqtisodiy oʻsish va tengsizlikka taʼsirini kompleks, tizimli va empirik asoslangan holda oʻrganishga imkon beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Innovatsiyalar va mehnat bozori poliarizatsiyasi tahlil natijalari innovatsiyalarning ijtimoiy tengsizlikka bevosita va bilvosita taʼsir koʻrsatishini koʻrsatmoqda. Avtomatlashtirish va raqamlashtirish jarayonlari quyidagi jarayonlarni kuchaytirmoqda yuqori malakali ishchilarga talab ortishi, past malakali ishchi kuchining qisqarishi, oʻrta malakali bandlik segmentining qisqarib borishi.

Bu jarayon “mehnat bozori poliarizatsiyasi” deb ataladi. Acemoglu va Restrepo nazariyasiga mos ravishda, yuqori texnologiyali tarmoqlar kengaygani sari daromadlarning yuqori kvintilga toʻplanish surʼati jadallashgan.

Natijalar koʻrsatishicha yuqori texnologiyali sektor bandligi 10% ga ortganda, malaka tafovuti 3–5% ga kengayadi. Avtomatlashtirilgan tarmoqlarda past malaka bandligi 7–12% ga qisqaradi. Bu esa daromadlarning teng taqsimlanmasiga va Gini koeffitsientining ortishiga olib keladi[10].

Innovatsion siyosat va iqtisodiy tengsizlik oʻrtasidagi bogʻliqlik. Natijalar shuni koʻrsatadiki, innovatsion siyosatning ijtimoiy oqibatlari mamlakatning ilmiy salohiyati, taʼlim tizimi sifatiga, texnologiyalarni joriy etish tezligiga va aholi uchun imkoniyatlar tengligiga bogʻliq.


Ijobiy natijalar kuzatilgan mamlakatlarda:

- ✧ inson kapitaliga investitsiyalar yuqori,
- ✧ taʼlim tizimi texnologik talablarga moslashgan,
- ✧ innovatsiyalar natijalaridan keng aholi qatlamlari foydalanadi,
- ✧ kichik biznesni modernizatsiya qilish uchun grantlar mavjud.





Salbiy natijalar kuzatilgan davlatlarda raqamli ko'nikmalar yetarli emas, texnologiyalar yirik korxonalar qo'lida jamlangan, daromadlar yuqori tabaqaga to'planadi, texnologik infratuzilma hududlar bo'yicha keskin farqlanadi. Tahlil shuni ko'rsatdiki, innovatsiyalar o'z-o'zidan tengsizlikni oshiruvchi kuch emas, aksincha ular qaysi siyosiy, iqtisodiy va institutsional sharoitda joriy etilishiga qarab tengsizlikni kuchaytirishi yoki kamaytirishi mumkin.



1-rasm. Innovatsion rivojlanish va iqtisodiy o'sish[11]


1-rasmda 2021–2024 yillarda innovatsion indeks 32,1 dan 38,4 ga o'sdi. Shu davrda YaIM o'sish sur'ati o'zgaruvchan bo'lsa-da, umumiy trend ijobiy. Masalan, 2021 yilda innovatsion indeks 36,8 ga yetgan va YaIM o'sish sur'ati 7,4%ni tashkil qilgan. Innovatsiyalar iqtisodiy o'sishni rag'batlantiruvchi asosiy omil sifatida namoyon bo'ladi, ya'ni texnologik yangilanish va R&D ko'rsatkichlari YaIMni barqaror oshirishga xizmat qiladi.

Gini koeffitsienti 2021 yildagi 0.285 dan 2024 yilda 0.305 ga oshgan. Grafik tahlil ko'rsatadiki, innovatsion rivojlanish oshishi bilan daromadlar taqsimotidagi tafovut ham ortgan. 2023 yil pandemiya davrida iqtisodiy o'sish keskin pasaygan bo'lsa-da, Gini koeffitsienti oshgan bu innovatsiyalarning past malakali ishchilarni bozor tashqarisiga siqishi bilan izohlanadi. Innovatsiyalar ijobiy iqtisodiy effekt bilan birga, tengsizlikni kuchaytiruvchi salbiy ta'sirga ham ega.

Innovatsion rivojlanish bilan birga raqamli iqtisodiyot darajasi ortmoqda. Yuqori texnologiyali hududlar iqtisodiy o'sishda yuqori sur'atlarga ega, past texnologiyali hududlarda esa iqtisodiy sustkashlik va tengsizlik kuchaymoqda. Innovatsiyalarning ijtimoiy ta'sirini tahlil qilishda hududlararo tafovutlarni hisobga olish muhim. Innovatsiya indeksi trendi yillar davomida izchil o'sish (2021–2024) iqtisodiy o'sishga musbat ta'sir.



Gini koeffitsienti trendi pastdan yuqoriga o'sish innovatsiyalar tengsizlikni kuchaytirishi mumkin. Innovatsiyalar iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi, YaIM va mehnat unumdorligini oshiradi. Shu bilan birga, innovatsion rivojlanishning mehnat bozoriga ta'siri natijasida Gini koeffitsienti oshadi, ya'ni tengsizlik kuchayadi. Raqamli tafovut va hududlararo farqlar inklyuziv siyosatni shakllantirishni talab qiladi. Siyosiy va iqtisodiy mexanizmlarga innovatsion faoliyatni inklyuziv qilish orqali tengsizlikni yumshatish mumkin.



2-rasm. Innovatsiya indeksi va R&D xarajatlari o'rtasidagi bog'liqlik[11]

2-rasmdan ko'rinadiki R&D xarajatlari YaIMga nisbatan 2018 yildagi 0.22 %dan 2022 yilda 0.34 %ga oshgan. Bu davrda innovatsiya indeksi ham 32.1 dan 38.4 ga o'sdi. R&D xarajatlari ortgani sari innovatsiya ko'rsatkichlari ham o'sib borgan — innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash bevosita iqtisodiy o'sishga xizmat qilgan. R&D sarmoyalarning yuqori bo'lishi yangi texnologiyalar, startaplar va ilmiy ishlanmalar sonini oshiradi. Raqamli iqtisodiyot ulushining o'sishi va mehnat unumdorligiga ta'siri. Raqamli iqtisodiyot ulushi 2018–2022 yillarda 4.8 % dan 9.4 % ga oshgan. Mehnat unumdorligi o'sishi esa shu davrda 2.3–3.5 % oralig'ida bo'lgan.

Raqamli iqtisodiyotning kengayishi ishlab chiqarish jarayonlarining avtomatlashtirilishi, logistika samaradorligi, onlayn xizmatlarning ko'payishi orqali mehnat unumdorligini oshirgan. Bu innovatsiyalarning iqtisodiy o'sish bilan qanday bevosita bog'liq ekanini ko'rsatadi.

Yangi texnologiyalar eksporti o'sishi innovatsion salohiyatning kuchayishi Eksport hajmi 2018 yildagi 182 mln. dollardan 2022 yilda 289 mln. dollarga oshgan. O'sish sur'ati 5 yilda taxminan 59 % ga teng. Bu ko'rsatkich innovatsion mahsulotlarga bo'lgan global talabning oshayotganidan dalolat beradi. Innovatsion texnologiyalar



eksporti iqtisodiy o'sishning sifat ko'rsatkichini oshiradi: iqtisodiyotning tovar emas, balki yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar eksportiga o'tishi kuchaymoqda. Gini koeffitsientining dinamikasidan ko'rinadi. 2018–2022 yillarda 0.285 - 0.305. Bu o'sish tengsizlik kuchayganini anglatadi. Buning asosiy sabablari. Innovatsion sektorlarda yuqori malakali kadrlarga talab oshdi ularning daromadi tez o'sdi. Past malakali ishchilar texnologiyalar bilan almashtirilish xavfi ortdi. Raqamli ko'nikmalar bo'yicha farqlar kengaydi. Hududlar o'rtasida raqamli infratuzilma teng rivojlanmagan.

Innovatsiyalar iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sir qilsa-da, ular ijtimoiy tengsizlikni orttirishi mumkin. Bu "innovatsion paradoks" sifatida izohlanadi — texnologiyalar o'sishni tezlashtiradi, lekin uning natijalari jamiyat qatlamlari o'rtasida teng taqsimlanmaydi. Statistik ma'lumotlar quyidagilarni ko'rsatadi. Innovatsiyalar iqtisodiy o'sishni sezilarli darajada jadallashtiradi. R&D xarajatlari va innovatsion indeks o'rtasida kuchli musbat bog'liqlik mavjud. Raqamli iqtisodiyotning kengayishi mehnat unumdorligini oshiradi. Innovatsion eksport iqtisodiy samaradorlikni kuchaytiradi. Biroq innovatsion rivojlanish tengsizligining ortishiga ham sabab bo'ladi.

XULOSA

Yurtimiz va jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, innovatsiyalar zamonaviy iqtisodiy rivojlanishning asosiy drayveri sifatida nafaqat yalpi iqtisodiy o'sish sur'atlarini jadallashtiradi, balki ijtimoiy tengsizlik dinamikasiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqot davomida olingan natijalar innovatsion faollikning oshishi, raqamli transformatsiya jarayonlarining chuqurlashuvi va ilmiy-texnik salohiyatning mustahkamlanishi iqtisodiyotning mehnat unumdorligi, qo'shilgan qiymat yaratish darajasi va eksport salohiyatini oshirish orqali YAIM o'sishini rag'batlantirishini tasdiqladi.

Biroq, innovatsion jarayonlarning tengsizlikka ta'siri murakkab va ko'p qirrali bo'lib, iqtisodiy imtiyozlarning aholining turli qatlamlari o'rtasida bir xil taqsimlanmasligi kuzatiladi. Yuqori malakali ishchi kuchi, texnologik imkoniyatlarga ega korxonalar hamda raqamli kompetensiyalarga ega aholining o'sib boruvchi ustunliklari Gini koeffitsientining ma'lum darajada oshishiga sabab bo'lmoqda. Ayniqsa, raqamli transformatsiya jarayonlari mintaqalar bo'yicha iqtisodiy tafovutlarni kuchaytirishi mumkinligi aniqlangan.

Shu bilan birga, innovatsiyalarni inkluziv tarzda boshqarish, bilimga asoslangan iqtisodiyotning institutsional poydevorini mustahkamlash, inson kapitaliga investitsiyalarni kengaytirish va kichik biznes hamda begining korxonalarni innovatsion jarayonlarga jalb etish tengsizlikning oldini olishga xizmat qilishi mumkin. Natijalar shuni ko'rsatadiki, davlat siyosati innovatsiyalarni yaratish emas, balki ularning ijtimoiy jihatdan adolatli taqsimlanish mexanizmlarini shakllantirishga qaratilgan bo'lishi lozim.

Umuman olganda, innovatsiyalar iqtisodiy o'sishni tezlashtiruvchi strategik omil bo'lsa-da, ular bilan bog'liq risklarni kamaytirish va ijtimoiy tenglikni ta'minlash





uchun ta'lim, infratuzilma, mintaqaviy rivojlanish va mehnat bozorining moslashuvchanligini oshirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar zarur. Shunday yondashuvgina innovatsion rivojlanishning barqaror, samarali va ijtimoiy adolatli bo'lishini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Schumpeter, J. A. (1934). The Theory of Economic Development. Harvard University Press. Innovatsiyalarning iqtisodiy rivojlanishdagi roli bo'yicha klassik nazariy manba.
2. Romer, P. (1990). "Endogenous Technological Change." Journal of Political Economy, 98(5), 71–102. Endogen o'sish modeli va innovatsiyalarning iqtisodiy o'sishiga ta'siri.
3. Aghion, P., & Howitt, P. (1992). "A Model of Growth Through Creative Destruction." Econometrica, 60(2), 323–351. Innovatsion rivojlanish va mehnat bozoriga ta'sir mexanizmlari
4. OECD (2022). OECD Science, Technology and Innovation Outlook. Rivojlangan davlatlarda innovatsion siyosatlar va natijalar tahlili.
5. UNDP (2023). Human Development Report. Rivojlanish, tengsizlik va texnologik farqlar bo'yicha global ko'rsatkichlar.
6. World Bank (2023). World Development Indicators. YAIM, inson kapitali, raqamli iqtisodiyot va tengsizlik statistik ma'lumotlari.
7. International Telecommunication Union (ITU) (2022). *ICT Development Index*. Raqamlashtirish darajasi va texnologik kirish imkoniyatlari bo'yicha global baholash.
8. www.stat.uz O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika qo'mitasi ochiq ma'lumotlar portali. (2020–2024).
9. hdr.undp.org/data-center
10. <https://www.globalinnovationindex.org/>
11. <https://data.worldbank.org/indicator/NY.GDP.MKTP.KD.ZG?locations=UZ>



2025-yil, №10/[10]-son

Mas'ul muharrir: Beglayev Uchqun
Musahhih: Boltayev Nurali
Sahifalovchi va dizaynerlar: Normurodov Sarvar,
Sharipov Shoxruh

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul hisoblanadi. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havoalarga murojaat qilish mumkin.
Ilmiy maqolalar, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: licht-1989@mail.ru
Jurnalning telegram manzili: t.me/agrobiznes_elektronjurnal
Telefon raqami: +998939018320, +998934393000
Jurnal rasmiy sayti: <https://www.agrobiznesjournal.uz>

"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo'yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.



"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali
2023-yil 23-maydan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **C-5669225** reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №083688**

**Manzilimiz: Toshkent viloyati, Qibray tumani,
Universitet ko'chasi, 2-uy**